

“MA’QULLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2023-yil “17” mart dagi
281-sonli qarori bilan

Boshqaruv raisi



O. Butayev

“TASDIQLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Kuzatuv kengashi majlisining
2023-yil “2” dekabr dagi
40-sonli bayonnomasi bilan

Kuzatuv kengashi raisi



O. Isakov

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining
Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati
(yangi tahrirda)**

Toshkent – 2023 yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasidagi dunyoning yetakchi amaliyotlari, shu jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlari – foydalanish bo‘yicha talab va tavsiyalar” (keyingi o‘rinlarda – Standart ISO 37001:2016) xalqaro standart talablari va tavsiyalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Mehnat Kodekslari, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi va “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-sonli Qarori hamda “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Siyosat bankning ichki me‘yoriy hujjati bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maqsad va vazifalar, tamoyillar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, korrupsiyani oldini olish va yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar va javobgarlikni belgilaydi.

3. Mazkur Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Bank – “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki;

homiylilik (homiylilik faoliyati) – yuridik va jismoniy shaxslarning homiylilik maqsadlarida boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga mol-mulkni, shu jumladan pul mablag‘larini qaytarmaslik sharti bilan yoki imtiyozli shartlarda berishda, ular uchun ishlar bajarishda, ularga xizmatlar ko‘rsatish va ularni boshqacha shaklda qo‘llab-quvvatlashda ifodalanadigan ixtiyoriy beg‘araz yordami (faoliyati);

benefisiar mulkdor – mulk huquqiga egalik qiluvchi yoki mijozni haqiqatda nazorat qiluvchi jismoniy shaxs manfaati ko‘zlangan holda pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyani amalga oshirayotgan yuridik shaxs;

pora (poraxo‘rlik) – davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o‘zi yoki vositachi orqali qonunga hilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklarni olish yohud mulkiy manfaatdor bo‘lish;

aloqa kanallari – Bank xodimlariga, shuningdek boshqa shaxslarga firibgarlik va korrupsiya alomatlarini, holatlari, xodimlar va kontragentlar o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi, o‘g‘irlik hamda mulk va aktivlardan g‘ayriqonuniy foydalanish, Bankda tovarlar, ishlar, xizmatlarni xarid qilish tartib-qoidalarining buzilishi holatlari to‘g‘risida xabar berish imkonini beruvchi tashkiliy chora-tadbirlar va texnik vositalar majmui;

davlat fuqarolik xizmati – davlat xizmatining bir turi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta‘minlashga doir haq to‘lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi;

Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti (keyingi o'rinlarda – KQND) – Bankda korrupsiyaga qarshi nazoratni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan maxsus bo'linma;

mansabdor shaxslar – mansabdor shaxslar tarkibiga Bank Kuzatuv kengashi raisi va a'zolari, Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari, Boshqaruv a'zolari, Bank bosh buxgalteri, tarkibiy va hududiy bo'linmalar (filiallar, amaliyot bo'shqarmalari, bank xizmatlarini ko'rsatish markazlari/ofislari va h.k.) rahbarlari hamda bosh buxgalterlari kiradi;

manfaatdor shaxslar – Bank boshqaruv organlarining a'zolari, davlat hokimiyati organlari, bank xodimlari, omonatchilari, shuningdek har qanday holatlarda Bankning barqaror faoliyat yuritishiga va manfaatlari to'qnashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan mijozlari, kontragentlari va boshqalar;

mehmondo'stlik belgilari – xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash va etiket qoidalariga muvofiq nonushtaga, kofe-breykka, tushlikka, kechki ovqatga va ommaviy-madaniy va kontsert-tomosha tadbirlariga taklif qilish;

mijoz – pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyani amalga oshirish uchun Bankka topshiriqnoma (ariza, iltimosnoma) bilan murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

kontragent – xarid qilish jarayoni doirasida Bank bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

sovg'a – xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bepul taqdim etilgan, moddiy qimmatga ega bo'lgan mol-mulk yoki beg'araz ko'rsatilgan xizmat;

kompleks tekshirish tartibi – korrupsiya xavfining tabiati va darajasini baholash va Bankka maxsus bitimlar, loyihalar, faoliyat turlari, kontragentlar va xodimlar bo'yicha qarorlar qabul qilishda yordam berish imkonini yaratuvchi jarayon;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi (keyingi o'rinlarda – KQKT) – qonunchilik va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, xodimlarning yuqori darajadagi kasbiy va axloqiy faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

xizmat tekshiruvlari – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq me'yorlari bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlar talablarini buzilishining faktlari, holatlari, sabablari va shartlarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui;

xodim – Bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

ISO 37001:2016 standarti – ISO 37001:2016 Xalqaro standart talabi va tavsiyalari “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlari – foydalanish bo‘yicha talab va tavsiyalar”.

4. Mazkur Siyosat Bank xodimlarining egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini bilishi va ularga rioya etishini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

5. Bank o‘z xodimlaridan mazkur Siyosat, boshqa ichki me’yoriy hujjatlar, shuningdek Bank xodimlarining odob-axloq qoidalari va korporativ etika Kodeksi talablariga rioya etishlarini talab qiladi, ishga qabul qilishda ularni Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasidagi barcha hujjatlari talablari bilan tanishtirish yo‘li bilan ularning korrupsiyaga qarshi madaniyati darajasini oshirishga hissa qo‘shadi.

6. Bank mazkur Siyosatni rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali o‘z mijozlari, kontragentlari, hamkorlari va jamoatchilikni amaldagi qonunchilikni buzishni rad etishi hamda korrupsiyaning barcha shakllari va ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida xabardor qilinishini ta’minlaydi.

2-bob. Siyosatning maqsad va vazifalari

7. Mazkur Siyosatning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

ochiq va qonuniy biznes yuritilishini ta’minlash;

korporativ madaniyatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash, korporativ boshqaruvning ilg‘or xalqaro tajribalarini joriy etish va ularga amal qilish;

Bankning yuqori ishbilarmonlik obro‘cini saqlab qolish;

Bank va uning xodimlarini korrupsiyaga oid faoliyatga jalb qilish xavfini minimallashtirish va bartaraf etish;

Bankda mijozlar, kontragentlar va O‘zbekiston Respublikasining davlat nazorat organlari bilan munosabatlarida korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasizlik madaniyatini shakllantirish;

korrupsiya xavflarini boshqarish tizimini yaratish, shu jumladan korrupsiyaning paydo bo‘lishining sabablari va shartlarini o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish va bartaraf etish.

8. Mazkur Siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish va ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularni yuzaga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta’minlash;

korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlarni huquqiy asoslari va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik muqarrarligi to‘g‘risida xodimlarni xabardor qilish;

Bankda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha tadbirlarning asosiy tamoyillarini belgilash;

Bankda mazkur Siyosat va KQKT bo'yicha boshqa ichki me'yoriy hujjatlarni amalga oshirilishi uchun mas'ul shaxslarni belgilash.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi faoliyatning asosiy tamoyillari

9. Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

qonuniylik - Bank o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek Bankning ichki hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiradi va korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini qo'llaydi;

fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi - xodimlar Bank ichida va/yoki uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qiladi;

ochiqlik va shaffoflik - korrupsiyaga qarshi Siyosatni rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali o'zining kontragentlari, hamkorlari va boshqa manfaatdor shaxslarni Bank tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi biznes standartlari to'g'risida xabardor qilishni ta'minlaydi.

tizimlilik - Bank korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarida izchillik, huquqiy tartib, ichki birdamlik, uzviy hamkorlik va o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi;

davlat va fuqarolik jamiyati bilan o'zaro hamkorlik - Bank korrupsiyaga qarshi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi, shuningdek korrupsiyaga qarshi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning ustuvorligi - Bank korrupsiyaning oldini olishga, uning namoyon bo'lishiga yordam beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarni oldindan ko'rilishini ta'minlaydi;

rahbariyatning shaxsiy namunasi ("yuqoridan namuna") - Bankning barcha darajadagi boshqaruv organlari korrupsiyaning barcha turlari va ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lib, o'z xatti-harakatlari va sodiqligi bilan namuna ko'rsatadilar;

xodimlarning jalb qilinganligi - Bank muntazam ravishda o'z xodimlarini qonunchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qoidalar to'g'risida xabardor qilib boradi, shuningdek, Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini shakllantirish va amalga oshirishda faol ishtirokini ta'minlaydi;

korrupsiyaga qarshi kurash tartib-qoidalarining korrupsiya xavfiga mutanosibliigi - Bank bo'linmalari rahbarlari korrupsiya xavfini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va Bank faoliyatidagi mavjud korrupsiyaga oid xavflarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi;

korrupsiyaga qarshi tartib-qoidalarining samaradorligi - Bank korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari va tartib-qoidalarining qo'llanilishini, samaradorlik, eng kam xarajatlar evaziga amalga oshirishning qulayligi va muhim natijaga erishish tamoyilini ta'minlaydi;

uzluksiz nazorat va muntazam monitoring - KQND amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va tartib-qoidalar samaradorligi ustidan muntazam monitoring olib borilishini ta'minlaydi;

javobgarlikning muqarrarligi - xodimlar o'z xizmat vazifalarini bajarishda korrupsiyaga yo'l qo'ygan taqdirda, egallab turgan lavozimidan, ish stajidan va boshqa shartlardan qat'iy nazar, qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.

4-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar

10. Bank quyidagi harakatlarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar deb hisoblaydi:

pora berish - har qanday shaxsni o'z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaslikka, ya'ni beruvchi uchun qulayroq shartlarda va/yoki qonunchilik va Bankning ichki me'yoriy hujjatlari bilan belgilangan tartib va tamoyillarni buzgan holda bajarishga undash maqsadida har qanday moliyaviy yoki boshqa manfaatlar berish yoki berishni va'da qilish;

pora olish - o'z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmasligi, ya'ni beruvchi uchun qulayroq shartlarda va/yoki qonunchilik va Bankning ichki me'yoriy hujjatlari bilan belgilangan tartib va tamoyillarni buzgan holda bajargani uchun har qanday moliyaviy yoki boshqa manfaatlarni shaxsan yoki vositachi orqali olish yoki olishga rozilik berish;

poraxo'rlikda vositachilik - pora beruvchi yoki pora oluvchi nomidan porani bevosita berish yoki pora beruvchi va/yoki pora oluvchiga ular o'rtasida pora olish va berish to'g'risidagi kelishuvga erishish yoki ular o'rtasidagi kelishuvni amalga oshirishda boshqa yordam ko'rsatish;

davlat fuqarolik xizmatchilarini pora evaziga og'dirib olish - davlat fuqarolik xizmatchisiga biznesni qo'lga kiritish/saqlab qolish yoki Bank uchun raqobatbardosh yoki boshqa afzalliklarni ta'minlash uchun uning xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir ko'rsatish maqsadida moliyaviy yoki boshqa manfaat berish yoki berishni va'da qilish;

Bank rahbariyati va/yoki Bank xodimlari tomonidan o'z mansab mavqei va/yoki mansab vakolatlari bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlardan o'zlari yoki uchinchi shaxslar manfaati uchun moliyaviy yoki qonunchilik va Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilmagan boshqa foyda/afzalliklarni olish uchun foydalanishi;

qonunchilikda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar toifasiga kiritilgan boshqa harakat yoki harakatsizlik.

11. Bankda mazkur Siyosatning 10-bandida ko'rsatilgan harakatlar quyidagi holatlarda sodir etilgan taqdirda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar deb hisoblanadi:

Bankka nisbatan yoki Bank nomidan uning manfaatlarini ko'zlab uchinchi shaxslarga nisbatan pora olish yoki berish, pora oluvchi yoki beruvchi o'rtasida vositachilik qilish va davlat fuqarolik xizmatchisini xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir ko'rsatish maqsadida pora evaziga og'dirib olish;

bevosita yoki bilvosita pora olish yoki berish, pora oluvchi yoki beruvchi o'rtasida vositachilik qilish va davlat fuqarolik xizmatchisini xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir ko'rsatish maqsadida pora evaziga og'dirib olish;

shaxsan yoki uchinchi shaxslar vositachiligida pora olish yoki berish, pora oluvchi yoki beruvchi o'rtasida vositachilik qilish va davlat fuqarolik xizmatchisini xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir ko'rsatish maqsadida pora evaziga og'dirib olish;

maqsadidan qat'iy nazar, shu jumladan ma'muriy va boshqa tartib-tamoyillarini soddalashtirish, raqobatbardoshlik va boshqa afzalliklarni ta'minlash uchun pora olish yoki berish, pora oluvchi yoki beruvchi o'rtasida vositachilik qilish va davlat fuqarolik xizmatchisini xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir ko'rsatish maqsadida pora evaziga og'dirib olish;

har qanday shaklda, shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, mulkiy xususiyatdagi boshqa mulk yoki xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/taqdim etish shaklida pora olish yoki berish, pora oluvchi yoki beruvchi o'rtasida vositachilik qilish va davlat fuqarolik xizmatchisini xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir ko'rsatish maqsadida pora evaziga og'dirib olish.

5-bob. Korrupsiyani oldini olish va yo'l qo'ymaslik bo'yicha asosiy choralar

1-§ Bankning korrupsiyaga qarshi faoliyati doirasidagi vazifalari

12. Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini samarali boshqarish Bankning quyidagi boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari, xodimlarining samarali va tezkor hamkorligi orqali ta'minlanadi:

a) Bank Kuzatuv kengashi:

Bank xodimlarida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik madaniyatini shakllantiradi; Korrupsiyaga qarshi siyosatni tasdiqlaydi;

Bankda KQKTning to'g'ri joriy qilinishini va uning natijadorligini nazorat qiladi;

belgilangan muddatlarda KQKTning holati va faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qiladi va tahlil qiladi.

b) Bank Boshqaruvi:

KQKTga nisbatan yetakchilik va sadoqatni namoyish etadi;

Bank xodimlarida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik madaniyatini shakllantiradi;

Bank tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik va bankning ichki me'yoriy hujjatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

Bankning barcha xodimlari tomonidan mazkur Siyosat talablari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Bank KQKTning samarali faoliyat yuritishi uchun yetarli va tegishli resurslarni ajratadi;

Bankda KQKTning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun vakolat va mas'uliyatga ega bo'lgan korrupsiyaga qarshi nazorat xizmatini yaratadi;

o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, sabablari va shartlarini bartaraf etishni ta'minlaydi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyiliga rioya etilishini ta'minlaydi;

Bankning aloqa kanallari orqali korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish tartib-qoidalarini qo'llashga chaqiradi;

Aloqa kanallariga korrupsiyaga oid shubhalar yoki faktlar haqida xabar bergan xodimlarni anonimlik va samarali himoya qilishni, shuningdek, rag'batlantirishni ta'minlaydi;

Bankdagi barcha biznes jarayonlar va qarorlar qabul qilish mexanizmlarining shaffofligi uchun javobgar;

Bankda ichki hujjatlar va qonun hujjatlarini huquqiy ekspertizasini o'tkazishga Yuridik departamentni ma'sul etib belgilaydi. Bankda faqatgina Yuridik departament ichki hujjatlarda korrupsiyaviy omillar mavjudligi va ularni chiqarib hujjatlardan tashlash maqsadida korrupsiyaga qarshi ekspertizani o'tkazadi;

KQND tomonidan har chorakda Bank Kuzatuv kengashiga KQKTning holati va faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etilishini nazorat qiladi. Shuningdek, Bank boshqaruvi istalgan vaqtda KQNDdan hisobotlar taqdim etishni talab qilishi mumkin.

d) KQND:

Bankda KQKTni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Bankning ichki hujjatlarida mavjud yoki aniqlangan korrupsiyaviy me'yorlarni bartaraf etish bo'yicha yuridik xizmat va boshqa tarkibiy bo'linmalarining takliflarini ko'rib chiqadi;

Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini takomillashtirish yuzasidan bank rahbariyatiga takliflar kiritadi;

Bankdagi korrupsiya xavflarini baholashda ishtirok etadi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavflarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va bankda korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantiradi;

Bankning huquqbuzarliklar sodir etish ehtimolini baholash maqsadida boshqa davlat organlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning holati va yo'nalishi to'g'risida ma'lumotlarni to'playdi;

Bank xodimlari tomonidan korrupsiya xavfi va huquqbuzarliklari to'g'risida aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

xizmat tekshiruvlari davomida korrupsiya holati to'g'risida aniqlangan ma'lumotlarni Bankning xizmat tekshirishlarini ro'yxatga olish reyestrda to'g'ri va to'liq aks ettirilishini nazorat qiladi;

KQND biznes jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan va korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan komissiyalar, qo'mitalar (shu jumladan xarid komissiyasi, kreditlarni

maqullash qo'mitasi va h.k.) va shu kabi Bankning kollegial organlar tarkibida bolishi taqiqlanadi. KQND o'z vakolati doirasida Bankning kollegial organlari faoliyatini tekshirishga haqli;

xaridlarni amalga oshirish jarayonida manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilish va korrupsiyani aniqlash yoki uni oldini olishda, Bank bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan/kirishni rejalashtirgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning xo'jalik faoliyatini tekshirishda ishtirok etadi;

Bank xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirishlar va tavsiyalar beradi;

korrupsiyaga qarshi kurash talablari va me'yorlarini buzganlik uchun intizomiy javobgarlikka tortiladigan shaxslarga nisbatan qo'llanilgan jazo choralarning yetarli va mos kelishini nazorat qiladi;

har chorakda yoki istalgan vaqtda Bank Boshqaruvining talabiga binoan Kuzatuv kengashiga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va korrupsiya holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni va namunaviy hisobotni taqdim etadi;

har chorakda yoki istalgan vaqtda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (keyingi o'rinlarda - Agentlik) belgilangan namuna asosida amalga oshirilgan ishlar va korrupsiya holatlari to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi;

qonunchilik doirasidan chiqmagan holda, Agentlik va boshqa nazorat qiliuvchi davlat idora va tashkilotlarining talabiga binoan istalgan vaqtda ularga Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va korrupsiya holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi;

Bankning KQKTni Agentlikning reyting baholash indikatorlariga muvofiqligini nazorat qiladi va bank bo'linmalari tomonidan o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlaydi;

Bankda KQKT qonunchilik va ISO 37001:2016 standarti talablariga muvofiqligini ta'minlaydi;

Bank xodimlarining malakasini oshirishda, o'quv dasturining korrupsiyaga qarshi kurashish qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Bank xodimlari, shu jumladan korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqadi;

o'quv rejasiga muvofiq Bank xodimlari uchun korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqadi, mashg'ulotlar o'tkazilishi va ularda xodimlar ishtirokini nazorat qiladi;

korrupsiyaga chek qo'yish yoki korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish choralari ko'rishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

"Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti to'g'risida"gi Nizom va xodimlarining lavozim yo'riqnomalariga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

e) Bankning barcha xodimlari:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik, mazkur Siyosat va Bankning KQKT bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlari talablariga qat'iy rioya qiladilar;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka va Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga rioya etish majburiyatini imzolaydi;

o'z faoliyatini lavozim yo'riqnomalari va Bankning KQKT bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi;

ehtimoliy yoki mavjud bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida oshkor qiladi;

mansab mavqeini suiiste'mol qilmaydi yoki shaxsiy maqsadlarda foydalanmaydi, korrupsiya, poraxo'rlik va boshqa salbiy holatlarga yo'l qo'ymaydi;

barcha xodimlar, kontragentlar, mijozlar yoki Bank bilan tadbirkorlik munosabatlariga kiruvchi boshqa shaxslar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risidagi shubha yoki ma'lumotlar to'g'risida zudlik bilan o'z rahbari va KQNDni xabardor qiladi;

xizmat tekshiruvlari uchun KQNDga zarur bo'lgan barcha materiallarni taqdim etadi;

o'z vaqtida KQKT masalalari bo'yicha ta'lim oladi.

13. Bankning barcha xodimlari, egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar, axloqiy ish yuritish va KQKT masalalari bo'yicha amaldagi qonunlarga rioya qilish bo'yicha o'qitilishlari shart.

Bankning xodimlarini axloqiy ish yuritish va KQKT masalalari bo'yicha o'qitish "Mikrokreditbank" ATB xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish tartibi to'g'risidagi Reglamentiga muvofiq amalga oshiriladi.

14. Bankda korrupsiya va axloqsiz tadbirkorlik xatti-harakatlari bo'yicha murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish "Mikrokreditbank" ATBda korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo'yicha aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan murojaatlarni ko'rib chiqish Tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

15. Bankda sovg'alar va mehmondo'stlik belgilarini qabul qilish, berish va taqdim etish hamda xayriya faoliyati va homiylik bo'yicha "Mikrokreditbank" ATBning sovg'alar, mehmondo'stlik belgilari, xayriya faoliyati va homiylik to'g'risidagi siyosatga muvofiq amalga oshiriladi.

16. Bank hamkorlik boshlanishidan oldin kontragentlarni "Mikrokreditbank" ATBning kontragentlar tekshiruvini o'tkazish bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq kompleks tekshirishni amalga oshiradi.

17. Bank kontragentlar bilan biznes aloqalarni o'rnatishda tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi bandni kiritadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi eslatma kontragentning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilish majburiyatidir.

18. Bankka ishga kirishga nomzodlarni "Mikrokreditbank" ATBga ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish Yo'riqnomasiga tekshiruvini amalga oshiradi, xodimlarning mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarini kiritadi.

2-§ Nazorat va audit

19. Bankning ichki auditining maqsadi KQND faoliyatining samaradorligini baholash, Bank Kuzatuv kengashi va Bank boshqaruviga KQKT qanchalik samarali amalga oshirilayotganligi va faoliyat yuritayotganligi to'g'risida asoslantirilgan bayonotni shakllantirish, shuningdek poraxo'rlikni aniqlashda, korrupsiya xavfi ortib borayotgan lavozimlari uchun uni oldini olishda omillarni ta'minlashda yordam beradi.

20. Bank muntazam ravishda o'z faoliyatini ichki auditini o'tkazadi, buxgalteriya hisobida aks ettirilgan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchligini hamda qonunchilik va ichki hujjatlari talablariga, shu jumladan, mazkur Siyosatda belgilangan tamoyillarga rioya etilishini nazorat qiladi.

6-bob. Javobgarlik

21. Bankning barcha tarkibiy bo'linmalari va hududiy bo'linmalari xodimlari egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar mazkur Siyosatga rioya etishi shart va uning tamoyillari va talablarini buzadigan harakatlari (harakatsizligi) uchun shaxsan javobgar.

22. Mazkur Siyosat va Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki me'yoriy hujjatlari talablarini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan qonunchilik va ichki hujjatlarga muvofiq intizomiy choralar qo'llanilishi mumkin.

23. Bank xodimlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 210 va 211-moddalarida ko'rsatilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda qonunchilikka muvofiq shaxsan javobgarlikka tortiladi.

24. Mazkur Siyosatning monitoringi va dolzarbligini ta'minlash uchun mas'uliyat KQNDning "Monitoring va xodimlarni o'qitish sho'basi" zimmasiga yuklatiladi.

7-bob. Hamkorlik

25. Bank korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va nazorat qiluvchi organlar bilan quyidagi maqsadlarda hamkorlik qiladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishda gumon qilinayotgan (ayblanayotgan) shaxslarni, ularning joylashgan joyini, shuningdek korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga aloqador boshqa shaxslarning joylashgan joyini aniqlash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish yoki ularni sodir etish vositasi bo'lib xizmat qilish natijasida olingan mol-mulkni aniqlash;

korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha axborot almashish;

korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish.

8-bob. Yakuniy qoidalar

26. Mazkur Siyosat Bank Boshqaruvining 2023-yil 12-martdagi 28-1-sonli qarori bilan ma'qullangan. Mazkur Siyosat Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

27. Mazkur Siyosatga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

28. Mazkur Siyosatda ko'rsatib o'tilmagan tamoyillar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

29. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining o'zgarishi natijasida, ushbu Siyosatning ayrim bandleri unga zid bo'lib yoki haqiqiy bo'lmay qolsa, mazkur Siyosatga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

30. Bank mazkur Siyosatni yoki uning alohida qoidalarini Bankning rasmiy veb-saytida erkin foydalanish uchun joylashtirish orqali korrupsiyani rad etishini ochiq e'lon qiladi.

31. Bank mijozlar, kontragentlar, xodimlar, Kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruv a'zolari tomonidan mazkur Siyosat tamoyillari va talablariga rioya etilishini ma'qullaydi va rag'batlantiradi, shuningdek habardor qilish va treninglar o'tkazish orqali Bankda va Bank xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi madaniyat darajasini oshirishga hissa qo'shadi.

32. Bank mansabdor shaxslari va kontragentlari mazkur Siyosatning qoidalari bilan tanishib chiqqan bo'lishlari kerak.

33. Mazkur Siyosat belgilangan tartibda Bankning har bir xodimi e'tiboriga yetkazilishi shart.

34. Mazkur Siyosat bilan tanishish ustidan nazorat bevosita Bankning tarkibiy bo'linmalari va hududiy bo'linmalari rahbarlariga, shuningdek, KQND zimmasiga yuklatiladi.

35. Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Siyosatda keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli Siyosat qoidalari ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

36. Mazkur Siyosat kuchga kirgan kundan boshlab, Kuzatuv kengashining 2020-yil 22-dekabrda 12-sonli qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" ATBning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati o'z kuchini yo'qotadi.



“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-
tijorat bankining
Korrupsiyaga qarshi kurashish
siyosatiga

ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun
hujjatlari va “Mikrokreditbank” ATBning korrupsiyaga qarshi siyosati” talablariga rioya
etish majburiyati**

Men, _____,
(bo‘linma va egallab turgan lavozim nomi)

(F.LSH)

mazkur bilan men “Mikrokreditbank” ATB Kuzatuv kengashining 20__ yil __ “____”dagi
____-son qarori bilan tasdiqlangan “Mikrokreditbank” ATBning Korrupsiyaga qarshi kurash
siyosati bilan tanishib chiqqanligimni tasdiqlayman.

“Mikrokreditbank” ATBning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatida belgilangan talab va
cheklovlarga rioya qilish majburiyatini o‘z zimmamga olaman.

“Mikrokreditbank” ATB Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablarini buzganligim uchun
O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ishdan bo‘shatishgacha bo‘lgan intizomiy,
shu jumladan, moddiy, ma‘muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishim mumkinligi haqida xabardor
qilindim.

20__ yil “__” _____.

(Imzo)

(Imzoni aniqlashtirish)